

Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti

Tabiiy resurs salohiyati hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining-asosiy omili sifatida

Xo'janova, Gulshoda Otamurodovna

Природоресурсное владение как главный фактор социально-экономического развития регионов

Ходжанова, Гульшода Отамуродовна

Natural resource ownership as a main factor of socio-economic development of regions

Khojanova, Gulshoda Otamurodovna

■ Received: May 2, 2024 ■ Revised: May 6, 2024 ■ Accepted: May 15, 2024 ■ Published Online: July 1, 2024

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslar salohiyatining ahamiyati, ulardan foydalanish darajasini oshirish yo'nalishlari haqida. so'z yuritilgan. Jumladan, Qashqadaryo viloyatining tabiiy iqlim sharoiti, mineral xomashyo va qazilma boyliklarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri o'rGANilib, O'zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi tahlil qilingan. Kerakli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mineral xomashyo, tabiiy iqlim sharoiti, tabiiy resurs salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, tabiiy muhit. mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi.

Аннотация. В данной научной статье речь идет о значении потенциала природных ресурсов, необходимых для экономического развития региона, направлениях повышения уровня их использования. обсуждалось. В частности, изучено влияние природно-климатических условий Каракалпакской области, минерального сырья ископаемых ресурсов на социально-экономическое развитие, проанализирована динамика производства промышленной продукции в Республике Узбекистан. Разработаны необходимые предложения и рекомендации.

Ключевые слова: минеральное сырье, природно-климатические условия, природно-ресурсный потенциал, социально-экономическое развитие, экономическая специализация регионов, природная среда. экономическое развитие региона.

Abstract. This scientific article is about the importance of the potential of natural resources necessary for the economic development of the region, directions for increasing the level of their use. was discussed. In particular, the influence of natural climatic conditions of Kashkadarya region, mineral raw materials and fossil resources on socio-economic development was studied, and the dynamics of production of industrial products in the Republic of Uzbekistan was analyzed. Necessary proposals and recommendations have been developed.

Key words: mineral raw materials, natural climatic conditions, natural resource potential, socio-economic development, economic specialization of regions, natural environment. economic development of the region.

KIRISH

Har qanday mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi uchun eng muhim asosiy shartlaridan biri uning hududida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning o'ziga xos bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar yig'indisidir. Hududning tabiiy resurs salohiyatini resurslarning miqdori, sifati va joylashuvi, ta'minlanish darajasi belgilaydi. Bu milliy faoliyatda aholining taqsimlanishi va uning iqtisodiy jihatdan eng muhim omili hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da PF-60-son farmonida "Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 milliard AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish"^[1] vazifasi belgilab berildi. Mintaqaning tabiiy resurs salohiyati uning iqtisodiy ixtisoslashuviga va hududiy mehnat taqsimoti tizimidagi o'rniqa bevosita ta'sir qiladi. Joylashtirish, ishlash shartlari, tabiiy resurslardan foydalanish xususiyatlari va tabiatni mintaqaviy rivojlanish yo'nashlari va sur'atlariga ta'sir qiladi.

Mintaqalarning hududiy taqsimotini hisobga olgan holda ularning taraqqiy etishi, mukammal ixtisoslashuvi, mintaqaviy sanoat ishlab chiqarish majmualari, kichik sanoat zonalari, tabiiy iqlim sharoitlari, mineral xomashyo boyliklari eng ahamiyatli zaruriy omillar hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanishning tabiiy shart-sharoitlarini aniqlash va yanada oqilona foydalanishda tabiiy resurslarning hududiy taqsimlanishini hisobga olish muhimdir. Shu munosabat bilan har qanday hududning xususiyatlari, avvalo, tabiiy iqlim sharoitlari va qazilma boyliklarini iqtisodiy baholash uchun ularning tashkil topishini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlab olish va tahsil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mintaqalararo ishlab chiqarish kuchlarini iqtisodiy jihatdan asoslashda ularning joylashuv xususiyatlarini, xomashyo bazalarining tarkibiy elementlarini mukammallashtirishni inobatga olib amalga oshirish har birini yaratish uchun eng mos va maqbul maydonlarni tanlash har qanday alohida xo'jalik subyekti va ularning guruhlari uchun ham alohida amaliy ahamiyatga ega.

Tabiiy resurslar-kishilar bevosita foydalanadigan yoki foydalanishi mumkin bo'lgan tabiiy muhitning barcha unsurlarini o'zida jamlaydi.

Xususan, bularga qazilma boyliklari, mineral xomashyolar, yer, suv kabi resurslarni kiritishimiz mumkin. Jamiyat taraqqiyotida insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan, biroq bevosita ishtirok etmasada, ularning iqtisodiyotiga ta'sir

ko'rsatadigan hududning joylashgan o'rni, iqlimi, quyosh nurlari, havo tabiiy sharoitlar sifatida belgilanadi. Insoniyat rivojlanishining muayyan bosqichida, tabiiy sharoit tabiiy resurslarga aylanadi. Misol uchun, quyosh radiatsiyasi, shamol, havo, dengiz to'lqinlari yoki yerning ichki issiqligi shular jumlasidandir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИI

Hududlarning tabiiy resurs salohiyatiga ta'sir etivchi omillarni bir qator iqtisodchi olimlar yondashuvida turlicha ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Ye.A.Illarionova resurslar bazasi va shu resurslarni samarali boshqarishga o'z e'tiborini qaratgan bo'lib, quyidagi omillarni belgilagan:

1. Geopolitik salohiyat – hududning boshqa hududiy birliklar o'rtasida qulay joylashuvini aniqlaydi va hududlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi;
2. Tabiiy salohiyat – hududlarning tabiiy sharoiti, tabiy resurslar bilan ta'minlanganligini belgilaydi;
3. Ishlab chiqarish salohiyati – hududlarning maksimal ishlab chiqarish salohiyatini belgilaydi.
4. Mehnat resurslari salohiyati – hududlar iqtisodiy faol aholi qismini belgilaydi va ish bilan bandlik darajasini ifodalaydi;
5. Investitsiya salohiyati – o'z xususiy mablag'lар bilan ta'minlanganini, hududlarning investitsiya jozibadorligi va samaradorligini ifodalaydi.
6. Infrastruktura salohiyati – hududlarning ishbilarmonlik, savdo, tashqi iqtisodiy aloqalarini ta'minlash uchun moddiy mablag'larning yetarlilikini belgilaydi [2].

Darhaqiqat, tabiiy resurslar salohiyati har bir hududning joylashgan o'rni, iqlim sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'z mazmun mohiyatiga ega. Tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga mavjud resurlarni tejab-tergab oqilona sarflash orqali erishiladi.

A.Sudakovaning ilmiytadqiqotlarida resurslar doim potensial ishlab chiqarish omillari bo'lib hisoblanib, ishlab chiqarishga jalb etilgan tabiiy obyektlar ekanligini ifodalanadi [3]. Mehnat resurslari salohiyatida esa hududlarda istiqomat qiluvchi aholi soni va uning tarkibidagi mehnatga layoqatililar ulushi hisobga olinib, bunda aholining bandlik darjasini oshishi muhim ahamiyat kasb etadi.

"Hududlarning iqtisodiy o'sishini va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda, hududlarning ishlab chiqarish imkoniyatlariga tayanmasdan turib amalaga oshirib bo'lmaydi" [4] - deb hisoblaydi iqtisodchi olim A.I.Tatarkin.

G.R.Madraximovaning fikriga ko'ra, "Sanoat korxonalarida

resurslar salohiyati deganda, ijtimoiy ishlab chiqarishning obyektiv xususiyatlaridan biri, ya'nı nafaqat resurslarning salohiyat imkoniyatlari, balki korxonaning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ko'lapaytirish jarayonlarini amalga oshirish va daromad olish qobiliyatining umumiyligi tushuniladi" [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hududlarning rivojlanish darajasini va ular o'rtaqidagi bog'liqligini e'tiborga olgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga tegishli ilmiy-tadqiqot ishini yozish davomida kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so'rovlari kabi usullardan foydalanildi. Tadqiqot davomida tizimli yondoshuvni qo'llash orqali iqtisodiy – statistik, tuzilmaviy – dinamik tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Insonning tabiiy muhitga munosabati va ular o'rtaqidagi o'zaro ta'sirini ifodalovchi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishida mehnat resurslari va ishlab chiqarish vositalarining mavjudligi bilan belgilanadi. Ya'nı, asboblar va mehnat obyektlari, sanoatni rivojlantirish asosidagi texnologiyalar; qishloq xo'jaligi, transport, qurilish kabilarga bog'liq. Foydalilmagan tabiiy resurslardan farqli ravishda takror ishlab chiqarishda bir marta qatnashuvchi mehnat


resurslari, mahsulotni yaratish jarayoni, ishslash salohiyatiga ega, qobiliyatli, lekin mehnatga layoqatsiz aholi qatlami, nofaol ishlab chiqarish vositalari sifatida qiyoslanadi.

Tabiiy resurslar salohiyatidan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tabiatga faol ta'sir ko'rsatish bilan birga ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi davrida zamonaviy jamiyatning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi[6].

Mintaqalardagi tabiiy sharoit va tabiiy resurslar salohiyati jamiyat hayotidagi tabiiy omillar hisoblanadi. Xususan, tabiiy muhit inson yashaydigan va iqtisodiy faoliyat yuritadigan manzili sifatida muhim ekologik omilni ifodalaydi. Aholi daromadlarini oshirish, barcha sohalarda yangi ish o'rnlari yaratish, maqsadli sarmoyalarni jalb qilish sanoat sohasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq [7].

O'zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, jumladan xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi) mahsulotining yillar kesimidagi o'zgarish dinamikasi keltirilgan.

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan dastlab Qashqadaryo viloyatida 2013-yilda 981,8 m tonna xom neft qazib olingan. 2014 yilda esa bu ko'rsatkich 796,4 m.tonnaga pasaygan. 2015-2019 yillar davomida ham biroz muntazam pasayishlar kuzatilgan. 2020-2022 yillar mobaynida viloyatimizda xom neftni qazib olish miqdori keskin pasayganligini ko'rshimiz mumkin. Bunga sabab sifatida neft qazib oluvchi korxonalar faoliyatining qisqarganligini keltirish mumkin. Shuningdek viloyatdagi qazib olinadigan



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi [8]

xom neft hajmining kamayganligi bilan izohlash mumkin. Qashqadaryo viloyati o'z ishlab chiqarish, iste'mol qilish va eksport qilishning zarur hajmlarini ta'minlashga qodir kuchli va xilma-xil tabiiy resurs salohiyatiga, xo'jalikda o'zlashtirish ancha qulay bo'lgan tabiiy sharoit va resurslarga (relef, iqlim, suv, tuproq va o'simlik) ega.biroq, u butun hudud bo'y lab juda notejis taqsimlangan.

"Viloyat hududida joylashgan Qashqadaryo havzasida Pomir-Oloy tog' tizimining g'arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari oralig'ida joylashib, asosan Qashqadaryo botig'ini o'z ichiga olgan, shimoli-sharq va janubi-sharqda Zarafshon hamda Hisor tizma tog'lari bilan o'ralgan. Tog'lar bilan tekisliklar orasi adirlar tekislikning katta qismi g'arbda Sandiqli va Qizilqum cho'llari bilan tutashgan Qarshi cho'lidan iborat. Viloyat shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqda tog'liklar bilan o'ralgan. Bu yerda Zarafshon va Hisor tizmalari, Chaqchar tog'lari ko'tarilib turadi, ularning eng baland nuqtalari 3750-4100 metrgacha yetadi" [9].

Qashqadaryo viloyati hududining bunday turli xildagi o'ziga xos tabiiy zahiralarga egaligini izohlaydi. Shuningdek, iqlim sharoitlariga qarab ichki hududiy mehnat taqsimoti vujudga kelgan. Ya'ni, viloyatning quyi qismi katta hajmdagi qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qulay bo'lgan yer maydonlariga ega. Ko'kdumaloq, Muborak, Pomuq kabi yirik neft-gaz, Sho'rtan, Zevardi, Qo'lтиqqa o'xshash tabiiy gaz konlari faoliyat yuritadi. "... ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdagi barcha jahbalar hududda amalga oshiralayotgan chora-tadbirlar bilan bevosita bog'langan bo'lib, hududning salohiyati. imkoniyatlari va resurslari bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Shuning uchun hududni rivojlantirishda, albatta, birinchi o'rinda davlatning manfaatlari va siyosatidan kelib chiqiladi va o'z navbatida, bevosita hududni o'ziga taalluqli bo'lgan muammolar, masalalar va ularning yechimlari topiladi" [10]. Qashqadaryoning tog'li hududi hisoblangan Dehqonobod tumanida turli-tuman tuz konlari, qurilish materiallari xomashyosi mavjud. Ushbu tuman bugungi kunda kaliy tuzlarining zahirasiga boy bo'lib, respublikamizda kaliy o'g'itlarini ishlab chiqarish sanoati bo'yicha yetakchi o'rinda turadi.

Respublikaning Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida tabiiy gazning yirik konlari mavjud. Hududimiz tabiiy gaz zahiralari juda boy. Hozirgi davrda zahirasasi juda katta bo'lgan gaz koni Qashqadaryo viloyatidagi Sho'rtan koni, Buxoroning Ko'kdumaloq konidan neft bilan birga gaz ajralib olinadi [11].

Qashqadaryoning yuqori hududida joylashgan Shahrisabz tumanida marmar konlari tashkil etilgan, Kitob tumanida esa, geologik qo'riqxona faoliyat yuritadi. Boshqa viloyatlardan farqli ravishda mintaqamiz yoqilg'i-energetika, tog'-kon va gaz kimyosi, qurilish materiallari xomashyosi manbalariga

boy bo'lganligi sababli ushbu sohalardagi sanoatni keng miqyosda rivojlantirishga qulay imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib, tabiiy boyliklar salohiyati har bir mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asosan, xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etishi, shu jihatdan, uning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklariga bog'liq holda mintaqaning tabiiy-resurs salohiyatini belgilaydi. Bu esa, tabiiy resurslar salohiyatini baholayotganda nafaqat real borliqni, balki imkoniyatlarni ham nazarda tutadi va bu imkoniyatlardan foydalanish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining istiqbolini belgilab beradi. Sanoat korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish doimo muhim ahamiyat kasb etib, uni har tomonlama tahlil qilish va mavjud tabiiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida hududlardagi mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish jarayonlarini ilmiy-uslubiy asoslab, bu bo'yicha takliflar berish mazkur ishning maqsadi hisoblanadi.

O'yaymizki, ijtimoiy-iqtisodiy hayot va sanoat uchun shart-sharoit yaratish, taraqqiy ettirish, raqobatbardosh afzalliklarini mustahkamlash, alohida hududlar va mahalliy guruhlarning iqtisodiytomondan hisobga olingan salohiyatini yuksaltirish kombinatsiyasi asosida modernizatsion klaster siyosati, innovatsion ixtisoslashuv strategiyalari siyosati bilan amaliyotga qo'llash mumkin.

Fikrimizcha, tabiiy resurslardan o'rni va samarali foydalanish va mintaqal iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga o'tish bo'yicha quyidagi mezonlar kerak, deb hisoblaymiz:

- tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, bio xilma-xillikni, tabiiy majmular va maxsus tabiiy boyliklarni erkin muhofaza qilish, ilmiy, madaniy va jamoaviy ahamiyatga ega obyektlarni asrashga asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;
- biologik xilma -xillikni saqlash, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha boshqa davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- tabiatda foydali hisoblangan o'simlik dunyosidan foydalanish borasidagi aloqalarni tartibga solish;
- mintaqaviy ahamiyatga ega alohida e'tirof etiladigan tabiiy hududlarni yaratish va ularning faoliyat ko'rsatishi borasidagi boshqaruva tizimini joriy etish va

takomillashtirish;

- yashil makon obyektlaridan keng foydalanishni nazorat qilish;
- davlatga tegishli qo'riqxonalar, tabiat yodgorliklari va obidalari salmog'ini kengaytirish va ular faoliyatini nazoratga olish. Shu jihatdan ham ushbu mezonlarga e'tibor berish ijobiy samara beradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xo'janova, Gulshoda Otamurodovna - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tayanch doktoranti / **Ходжанова, Гульшода Отамуродовна** - Докторант Каршинского инженерно-экономического института/ **Khojanova, Gulshoda Otamurodovna** - Doctoral student at Karshi Engineering Economics Institute
 - gulikhjanova@mail.ru
 - <https://orcid.org/0009-0001-2902-6736>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni 28.01.2022 yil
- [2]. Илларионова Ye.A. (2015) Экономический потенциал региона: содержание, оценка, предпосылки сбалансированного развития
- [3]. Судакова А. Бюджетное планирование и прогнозирование. Учебное пособие. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2019. – 308 с
- [4]. Татаркин А.И. Системный подход к разработке и реализации промышленной политики России. [Systematic Approach to the Development and Implementation of Industrial Policy of Russia]. Materaliy II dal'nevostochnogo mezhdunarodnogo ekonomicheskogo foruma [Proceedings of the Second Far Eastern International Economic Forum], Khabarovsk, 2006. Available at: http://dvforum.ru/2007/doklads/ks1_Tatar.aspx
- [5]. Madraximova, G. (2023). Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini iqtisodiy baholash asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(3), 380–384. https://doi.org/10.55439/eced/vol24_iss3/a60
- [6]. Otamurodovna, Xo'janova Gulshoda. "Hududlarda tabiiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish." Proceedings of international conference on educational discoveries and humanities. Vol. 3. No. 4. 2024.
- [7]. Хожанова, Г. О. (2023). Показатели Развития Промышленного Кластера. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain), 78-82.
- [8]. O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari
- [9]. D.Mirodova Qashqadaryo viloyati iqtisodiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. Qarshi – 2007.9-bet. B-89
- [10]. Nazarov. Sharofiddin. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv [Matn] / Sh. Nazarov.-T.: «Renessans» nashriyoti, 2021. - 196 b.16-bet
- [11]. Xo'janova, G. (2023). Qashqadaryo viloyatida tabiiy resurslardan foydalanish istiqbollari "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. 2023-yil, dekabr. № 11-12sonlar 209-211 betlar.